

**TIBBIYOTDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK BILIMLARNING O‘RNI VA
AHAMIYATI**

Olimova Dano Shakirovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri p.f.n dotsent.

Xasanova Lobar Hamro qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Bolalar xirurgiyasi y o‘nalishi magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot sohasida ijtimoiy-psixologik bilimlarning ahamiyati, bemor va shifokor o‘rtasidagi muloqotning sifati, kasalliklarni tashxislash va davolash jarayonidagi psixologik yondashuvning roli tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash muassasalarida ishlovchi xodimlar uchun ijtimoiy va psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarbligi yoritilgan. Maqolada tibbiy xodimlarning empatiya, stressni boshqarish, hamdardlik va ijtimoiy muloqot madaniyatini rivojlantirish orqali bemorlarning sog‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-psixologik bilimlar, tibbiyot, shifokor-bemor munosabatlari, muloqot madaniyati, empatiya, stress, sog‘liqni saqlash, psixologik yondashuv.

Zamonaviy tibbiyot nafaqat biologik va klinik bilimlarga, balki ijtimoiy hamda psixologik bilimlarga ham asoslanadi. Tibbiyotning samaradorligi ko‘p jihatdan shifokor va bemor o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli munosabatlarga bog‘liq. Shu bois, sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis ijtimoiy-psixologik bilimlarga ega b o‘lishi zarur.

Psixologiya — bu inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakatida voqelikning ruhiy aks etishini, psixik jarayonlar, holatlar va insoniy xususiyatlarni o‘rganuvchi fandir. U sezgi va idrok, tafakkur va hissiyot, faoliyat hamda muomala kabi ruhiy jarayonlarni o‘z tadqiqot doirasiga oladi. Psixologiya asosiy vazifasi —



psixikaning rivojlanish qonuniyatlarini filogenez (tur sifatida rivojlanish) va ontogenez (shaxs sifatida rivojlanish) asosida ochib berishdan iborat. Bu maqsadga erishishda psixologiya biologiya, ayniqsa fiziologiya bilan, shuningdek, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq va boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog‘liq.

Psixologiya, avvalo, inson psixikasining eng murakkab shakllari — ong va o‘zini anglashni o‘rganadi. Tibbiyot psixologiyasi bo‘yicha ilk darslik XX asr boshlarida mashhur nemis psixiatr va psixologi Ernst Krechmer tomonidan yozilgan. Uning tavsiyasi asosida tibbiyot psixologiyasi Yevropada mustaqil fan sifatida o‘qitila boshlandi. Keyinchalik ushbu sohaga oid turli darsliklar yaratilgan va hozirda bu fan ko‘plab davlatlarning universitetlari va tibbiyot institutlarida o‘qitiladi.¹

Ta’kidlash joizki, “tibbiyot” juda keng tushuncha bo‘lib, psixologlar uning deyarli barcha yo‘nalishlarida faoliyat yuritadilar. Ayniqsa, klinikalarda ishlovchi psixologlar bemorlar bilan bevosita shug‘ullanadi, kasalliklarni tahlil qiladi va vrach kabi ularni davolashda ishtirok etadi. Shu bois ko‘plab mamlakatlarda bu soha “klinik psixologiya” deb ataladi.

Ijtimoiy psixologiya insonlarning o‘zaro munosabatlarini, jamiyatda tutgan o‘rnini va ichki holatini o‘rganadi. Tibbiyotda bu bilimlar quyidagi jihatlar bilan muhim ahamiyatga ega:

- Shifokor va bemor munosabatlari: Samimiy va empatik muloqot bemorning dardini to‘g‘ri tushunishga va aniq tashxis qo‘yishga yordam beradi.
- Bemorning psixologik holati: Stress, xavotir va depressiya holatlarida bemorga psixologik yordam ko‘rsatish davolanish samaradorligini oshiradi.

Jamiyat va tibbiyot: Kasalliklar profilaktikasi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar muhim ro‘l o‘ynaydi.

Sog‘liqni saqlash xodimlari uchun treninglar: Shifokor va hamshiralar uchun ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshirish bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazilishi zarur.

¹ Jalolov, A.A. (2012). Tibbiyot psixologiyasi asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.



Tibbiyot psixologiyasi - umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi bo'lib kasalliklarning kelib chiqishida psixikaning o'rnini va ahamiyatini o'rganadi. Tibbiyot psixologiyasi, tom ma'noda, bemor psixologiyasini o'rganuvchi fandır. Lekin bu ta'rif uning barcha imkoniyatlarini qamrab bera olmaydi, albatta. Chunki u sog'lom kishilarda kasallikni keltirib chiqaruvchi barcha tashqi va ichki omillarni o'rganadi hamda ularning sabablarini izlaydi. Tibbiyot psixologiyasi chegara bilmas, keng qamrovli fandır. U uzoq tarixga ega bo'lib, o'zining rivojlanish bosqichida bir nechta davrlarni bosib o'tdi.

Patopsixologiya psixologiyaning ana shu o'zgarishlarini o'rganadigan sohasi yoki kasal odam psixikasi to'g'risidagi ta'limotdir. Tibbiyot psixologiyasi quyidagi asosiy masalalarni o'rganadi:

- 1) bemor va tibbiyot xodimining shaxsi, ular orasidagi o'zaro munosabatlarni;
- 2) psixoprofilaktika, psixogigiyena va deontologiya muammolarini;
- 3) shifokor siri va etikasini;
- 4) yosh bilan bog'liq tibbiyopsixologik muammolarni;
- 5) sezgi va idrok, diqqat va xotira, shaxs, xulq-atvor, temperament, stress, hissiyot, tafakkur, ong va ularning xususiyatlarini;
- 6) psixologik tekshirish usullarini.

Psixika sog'liq va kasalliklarni davolashda muhim ro'l o'ynaydi. Bemorning ruhiy holatini yaxshilash maqsadida reja asosida doimiy ravishda psixologik yordam berish psixoterapiya deb ataladi.

Kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash va mustahkamlashda psixikaning o'rnini psixogigiyena va psixoprofilaktika fanlari o'rganadi.

Tibbiyot psixologiyasi tarkibiga ikki o'xshash, lekin bir-biridan farq qiladigan tushuncha kiradi: psixopatologiya va patopsixologiya.

Psixopatologiya — bu ruhiy kasalliklar yoki boshqa turdagi kasalliklar fonida psixikada yuzaga keladigan barcha o'zgarishlarni o'rganadigan sohadir.

Shuni aytish joizki, kuchli ruhiy zo'riqishlardan so'ng odamda turli jiddiy kasalliklar – masalan, qandli diabet, yurak ishemik kasalliklari, yurak infarkti, insult, hatto oshqozon-ichak yarasi yoki qon kasalliklari rivojlanishi mumkin. Odam



organizmda yuzaga keladigan har qanday xastalikda ruhiy holatning ta'siri muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli, har bir shifokor psixologiya asoslarini chuqur o'rganishi zarur. Chunki bemorning ruhiy holati sog'lom kishiniki bilan farq qiladi. Har bir inson betoblikka turlicha munosabat bildiradi: ayrimlar juda siqilib, o'z ahvolini og'irlashtiradi, boshqalar esa umidsizlikka tushib, taqdirga bo'yin egadi, yana boshqalar esa sog'ayishiga umid bog'laydi. Bularning barchasi bemorning temperamentiga bog'liq. Shu bois, har bir shifokor bemorni davolashga kirishar ekan, uning temperament turiga – xolerik, sangvinik, melanxolik yoki flegmatik ekanligiga e'tibor berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotda ijtimoiy-psixologik bilimlardan foydalanish sog'liqni tiklash jarayonini tezlashtiradi, bemorlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishga yordam beradi va tibbiy xizmat sifatini oshiradi. Shu bois bu bilimlarni o'rganish va amaliyotda qo'llash zamonaviy tibbiyotning ajralmas qismidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jaeva, N.N. (2004). Pedagogik va ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
2. Jalolov, A.A. (2012). Tibbiyot psixologiyasi asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
3. Ergashev, S. (2018). Tibbiyot xodimlari uchun psixologik madaniyat. – Toshkent: "Ilm Ziyo" nashriyoti.
4. Маһаев, I. (2019). Tibbiy amaliyotda kommunikatsiya madaniyati. – Toshkent: O'zMU nashriyoti.